

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

Oldingi tahrirga qarang.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI HUZURIDAGI ATOM
ENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH
TO‘G‘RISIDA**

(qaror nomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5484-son Farmonini ijro etish maqsadida:

Oldingi tahrirga qarang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda “O‘zatom” agentligi deb yuritiladi) boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 48 nafardan iborat tuzilmasi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

2. Belgilab qo‘yilsinki:

“O‘zatom” agentligi bosh direktori O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi;

“O‘zatom” agentligi bosh direktorining o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

“O‘zatom” agentligi bosh direktori maqomi, mehnatga haq to‘lash, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish shart-sharoitlari bo‘yicha vazirga, bosh direktor o‘rinbosarlari — vazir o‘rinbosarlariga tenglashtiriladi.

3. “O‘zatom” agentligi bosh direktoriga:

zarur hollarda, “O‘zatom” agentligining tashkiliy tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritish;

“O‘zatom” agentligiga yuklangan vazifalarni bajarish doirasida yuqori malakali xorijiy mutaxassislarini rahbarlik lavozimlariga va konsultantlar sifatida jalb etish huquqi berilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Oldingi tahrirga qarang.

bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

(4-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

ikki oy muddatda “O‘zatom” agentligini unga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur nazariy bilimlarga va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirilishini ta‘minlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

“O‘zatom” agentligining ushbu qarorni amalga oshirish doirasidagi xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi Davlat budjeti parametrlari doirasida mablag‘lar ajratsin hamda 2019-yildan boshlab har yilda zarur budjet mablag‘larini nazarda tutsin;

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi Davlat budjeti xarajatlari smetasiga ushbu qaror qoidalaridan kelib chiqqan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin;

“O‘zatom” agentligiga zarur xizmat avtotransport vositalari xarid qilish uchun pul mablag‘lari ajratilishini hamda 6 ta yengil xizmat avtomobillarini saqlash uchun limit belgilanishini ta’minlasin;

“O‘zatom” agentligiga asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq moddiy-texnik bazasini shakllantirish uchun zarur asbob-uskunalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sotib olish hamda ma’muriy binolarni ta’mirlash uchun mablag‘lar ajratilishini ta’minlasin.

Oldingi tahririga qarang.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining mablag‘lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining budjetdan tashqari Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin:

(6-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

Oldingi tahririga qarang.

(6-bandning ikkinci xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son)

xalqaro moliyaviy va boshqa institutlarning, xorijiy tashkilotlarning grantlari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. Belgilab qo‘yilsinki, Jamg‘arma mablag‘lari:

atom energetikasi obyektlarini, shu jumladan tashqi infratuzilma va turar joylarni qurish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga tayyorlash bilan bog‘liq “O‘zatom” agentligining vazifalarini samarali amalga oshirish;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, xorijiy mutaxassislar va konsultantlarni jalb etish, shuningdek, xorijiy xizmat safarlari xarajatlarini qoplash;

“O‘zatom” agentligi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

axborot texnologiyalarini joriy etish va modernizatsiyalash, “O‘zatom” agentligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

“O‘zatom” agentligining qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyati bilan bog‘liq boshqa tadbirlar uchun foydalaniladi.

Oldingi tahririga qarang.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining budjetdan tashqari Atom energetikasini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlasin.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

9. Toshkent shahar hokimligi “O‘zatom” agentligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligini joylashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi “O‘zatom” agentligini har choraklik va yillik statistika byulletenlari majburiy tartibda yuboriladigan tashkilotlar ro‘yxatiga kiritsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi “O‘zatom” agentligini zarur aloqa, jumladan hukumat aloqasi bilan belgilangan tartibda ta’minlasin.

Oldingi tahririga qarang.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

13. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi “O‘zatom” agentligi, Fanlar akademiyasi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi A.S. Sultanov hamda “O‘zatom” agentligi bosh direktori zimmasiga yuklansin.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 19-iyul,
PQ-3870-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi PQ-3870-son qaroriga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligining
TUZILMASI**



Umumiy shtatlar soni — 48 nafar.

* Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan normativlarga muvofiq belgilanadi.

(1-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.07.2018-y., 07/18/3870/1545-son; 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son)